


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60730100 – Arxitektura bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil «25» 06 dagi 215 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	12
	Kelishuv varag‘i.....	13

1. Umumiy tavsifi

60730100-Arxitektura ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim shaklida o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60730100–Arxitektura ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari(rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otanalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

60730100 – Arxitektura va qurilish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, arxitektura qurilish sohasida, bino va inshootlar loyihaviy yechimlarni yaratish, shaharsozlik, transport obodonlashtirish, landshaft tizimlarini loyihalashtirish, arxitektura yodgorliklarini ta‘mirlash va qayta tiklash, sanoat, qishloq xo‘jaligikorxonalarini binolarni barpo etish va eskpluatatsiya qilish bilan bog‘liq majmuyiy masalalarni yechish, ushbu yo‘nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashdagi inson faoliyati, usullari, metodlari majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Qurilish va uy-joy komunal xujaligi vazirligi tasarrufidagi arxitektura qurilish nazorati inspeksiyalarida, barcha viloyat, shahar va tuman arxitektura qurilish boshqarmalari, loyihalash tashkiloti va institutlari, bino va inshootlar, shaharlar, shaharsozlik va landshaft obyektlari, bino va inshootlar bosh rejalar ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda arxitektorlik faoliyati.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

60730100-Arxitektura ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriyat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriyat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, arxitektura va qurilish sohasida zamonaviy bino va inshootlar qurilishi yutuqlaridan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, loyihalash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ishlash va sohaga tegishli turli kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot;

loyihaviy-konstruktorlik;

tashkiliy-boshqaruv;

ishlab chiqarish-texnologik.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60730100 – Arxitektura ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Arxitektura qurilish sohasida shaharlar xududi, shaharsozlik, bino va inshootlar loyihalash sohasiga oid texnik vositalar, tizimlar, jarayonlar, qurilmalar, materiallar va arxitekturaviy uslublar, zamonaviy konstruktiv Yechimlarni amaliyotga tatbiq etish, arxitektura nazariyasi va tarixi, zamonaviy arxitektura Yechimlarni ilmiy asoslanishda va zarur bo‘lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

Bino va inshootlar loyihalashda, yangi arxitekturaviy Yechimlarni yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda ilmiy manbalarni o‘rganish, yangi zamonaviy axborot texnologiyasini amaliy jarayonda va zarur bo‘lgan tashkiliy ishlarda faol qo‘llash;

Respublika va horijda chop etilgan arxitektura qurilish sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

Ilmiy-tadqiqot va amaliy loyiha ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

Mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

Internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy, konstruktiv va texnologik, yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirib topa olishi kerak;

Ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish jamoasida ilmiy natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda va kasbiy faoliyat masalalarini Yechish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

Bino va inshootlar loyihalash, shaharsozlik, landshaft obodonlashtirish, transport infrastrukturasi muhandislik tizimlarini loyihalash borasida tasavvurga ega bo‘lishi;

turar-joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarini loyihalash bajarish va nazoratga olish;

zamonaviy qurilish materiallari, innovatsion yondoshuv, iqlim, muhit, relef masalalarini tizimli tahlili va loyihaviy bosqichlarda hisobga olish hamda zamonaviy AKT foydalanish va konstruktsiyalash;

loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy-konstruktorlik ishlarini rasmiylashtirish;

ishlab chiqiluvchi loyihalar va texnik hujjatlarni vazifalar, standartlar, me‘yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta‘minlash **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

qurilish, ta‘mirlash va rekonstruktsiya ishlarini amalga oshiriladigan xududlarni qurilishga tayyorlash;

bino va inshootlar eskiz, ishchi loyihalarini yaratish va barcha loyihaviy bosqichlarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish va qo‘llash;

bino va inshootlarni loyihalash, qurishda va ekspluatatsiyada me‘yoriy ma‘muriy hujjatlarni tuzish va sifatini nazorat qilish;

shaharsozlik, landshaft, urbanitsaziya, rejalashtirish masalalaridagi loyiha hujjatlaridan foydalanish va texnik iqtisodiy baholashni o‘qiy olish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

qurilish materiallari, konstruktiv Yechimlari, muhandislik kommunikatsiya tizimlarini qurilishi va tizimlardan foydalanish jarayonlarida texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilish;

turar-joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnologik, mehnat xavfsizligi intizomga rioya qilinishini nazorat qilish;

turar-joy, jamoat va sanoat binolarining loyihasida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

Bino va inshootlar loyihalash va qurish tizimlarining faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

Ishchi loyihalar va kompleks loyiha hujjatlarini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

Axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

Atrof–muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

Binolardan konstruktiv, energiyatejamkor resurslarni tizimli amaliyotga tatbiq qilish;

Ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

Fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

Bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

Ishlab chiqarish jarayonlarining atrof–muhitni va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilish;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini

egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur

hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

me‘yoriy-xuquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

bino va inshootlarni loyihalash, loyiha hujjatlarini amaliyotga tadbiq etish, loyihalash va ekspluatatsiyasi, hamda tizimdagi ishchi jarayonlarni boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

arxitektura sohasidagi muhim yangilik, yondoshuv axborotlarni analiz qilish, o‘z ustida muntazam ishlashi, jamiyatda, dunyoda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi hamda ilmiy asosda hayotda va kasb faoliyatida foydalana bilishi;

turar joy, jamoat va sanoat binolarida konstruktiv va kompozitsion Yechimlarida tizimli loyihalash bosqichlari va ulardan foydalanish va amaliyotga qo‘llay bilish;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

turar-joy, jamoat va sanoat binolarining loyihalash bosqichlarida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, SHNK, QMQLardan foydalanish, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzishni bilish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda oliy ma‘lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishla olishga, muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

bino va inshootlar loyihalash bosqichlari, barcha bo‘limlar tizimli faoliyati sifatini boshqarish va tadbiq qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

yangi innovatsion yondoshuv, ilmiy asoslangan bilimlarni mustail egallay bilishi, amlaiy loyiha ishlarida mustaqil fikrga ega bo‘la olishi himoya qilishi, raqobatbardosh kadr bo‘lishga va umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

shaharsozlik va kasbiy etika kodekslariga, hamda mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklanish hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4500	150	1,2,3,4,5,6,7,8
1.01	O‘(R)T 1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	XT 1104	Xorijiy til	120	4	1
1.03	O‘YET 1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.04	AQRH 1104	Falsafa	120	4	1
1.05	Din 1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.06	AQRH 1108	Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik	240	8	1,2
1.07	AChGP 1204	Arxitekturaviy chizma, grafika va prezentatsiya	120	4	2
1.08	AKLA1112	Arxitekturaviy loyihalash asoslari	300	10	1,2
1.09	JTS 1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.10	IG 1204	Injenerlik geodeziyasi	120	4	2
1.11	DL1210	Digital loyihalash (AutoCAD, SketchUp, Revit)	300	10	2,3
1.12	AMH1204	Arxitekturada matematik hisoblash	120	4	2
1.13	BTT 1304	Binolar tuzilishi tahlili	120	4	3
1.14	AQT1304	Arxitektura va qurilish tarixi	120	4	3

1.15	AL1306	Arxitekturaviy loyihalash 2.1	180	6	3
1.16	AL1406	Arxitekturaviy loyihalash 2.2	180	6	4
1.17	AL1506	Arxitekturaviy loyihalash 3.1	180	6	5
1.18	AL1606	Arxitekturaviy loyihalash 4.1	180	6	6
1.19	ATN 1504	Arxitektura tarixi va nazariyasi	120	4	4
1.20	QM 1504	Qurilish materiallari	120	4	4
1.21	QK 1404	Qurilish konstruksiyalari	120	4	5
1.22	ShA 1504	Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi	120	4	5
1.23	BIT1404	Bino va inshootlar tipologiyasi	120	4	4
1.24	SHL1706	Shaharsozlik loyihalash	180	6	7
1.25	LL 1606	Landshaft loyihalash	180	6	6
1.26	IvJ 1504	Interyer loyihalash	120	4	5
1.27	ARYTvQT 1706	Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash	180	6	7
1.28	BA1706	Barqaror arxitekturasi	180	6	6
1.29	BIL1706	Bitiruv ishi loyihasi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1740	58	3-7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1740	58	3-7
Kvalifikatsiya		Arxitektura			
		Jami	6240	208	
		Malakaviy amaliyot	840	28	2, 8
		Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish	120	4	8
		Jami	960	32	
		HAMMASI	7200	240	

* Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malakaviy amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malakaviy amaliyot ma'lum bir semestrda to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malakaviy amaliyot to'liq 7-semestrda qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 7-semestr qayd etilmaydi. 7-semestr faqat "Malakaviy amaliyot" qatorida ko'rsatiladi

Bibliografik ma’lumotlar

UDK _____

Guruh _____

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obykti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturlari (bakalavriat dasturi), profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, o‘quv davri, arxitektura, arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitekturaviy ashyolar, arxitekturaviy kompozitsiya va grafika, bino va inshootlar, shaharsozlik, landshaft arxitekturasi, konstruktsiya texnologiya, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, imalaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti



Rektor v.v.b.  B. Tulaganov

2024 yil « _____ » _____

KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev



2024 yil « _____ » _____

M.O.:

Toshkent BoshPlan LITI DM

Bosh Direktor  R.S. Sharifov

2024 yil « _____ » _____

M.O.:



“Qishloq qurilish loyiha” DM

Bosh Direktor  I.S. Ahmedov

2024 yil « _____ » _____

M.O.:




Toshkent Uyjoy LITI AJ

Bosh Direktor  B.B. Ubaydullayev

2024 yil « _____ » _____

M.O.:



Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
60730100-arxitektura ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari
o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

«__» _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – «Qishloqqurilishloyiha» DM bosh direktori I. Axmedov, Toshuyjoy LITI AJ bosh direktori B.Ubaydullayev, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektor v.v.b B.Tulaganov birgalikda TAQUda ishlab chiqilgan quyidagi bakkalariyat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60730100-Arxitektura ta'lim yo'nalishi malaka talabi hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-son, va 2019 yil 17 iyundagi «2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida»gi PQ-4359-son, 2022 yil 8 noyabrdagi «Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-416-son, qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavriyat bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

«Qishloqqurilishloyiha» DM
bosh direktori

Toshuyjoy LITI AJ bosh direktori

Toshkent arxitektura-qurilish
universiteti rektori v.v.b.


I. Axmedov


B. Ubaydullayev


B. Tulaganov